



TERI LEYSHMANIOZINING HUDUDLARARO STATISTIK TAHLILI

Maxmudov Farxod Axmedovich

Buxoro davlat tibbiyot instituti

ARTICLE INFO

Received: 02nd January 2024

Accepted: 07th January 2024

Online: 08th January 2024

KEY WORDS

Teri leishmaniozi, Buxoro, limfangit.

ABSTRACT

Teri leishmaniozi - chivinlar orqali yuqadigan Leishmania protozoylarining ko'plab turlari tomonidan qo'zg'atilgan keng tarqalgan tropik infeksiyadir. Uning klinik ko'rinishlari juda xilma-xil bo'lib, ko'plab parazit va xos omillarga bog'liq bo'lib, ular chuqur o'rganilmagan. O'zbekiston ham teri leishmaniozi bo'yicha epidemiologik mintaqalardan biri hisoblanadi. Maqolada Buxoro viloyati bo'yicha yoshi, jinsi va tumanlararo statistik ma'lumotlar to'plami keltirilgan.

Mavzuning dolzarbligi

Leyshmanioz asrlar davomida hayot uchun xavfli parazitlar kasallik bo'lib, butun dunyo bo'ylab 98 mamlakatda taxminan 350 million odamni qamrab olgan [1,2,3,4].

Leyshmaniozning tarqalish darajasi parazitlar etiologiyali kasalliklar orasida birinchi o'rinlardan birini egallaydi. Xar yili dunyoda 1 milliongacha odam zararlanadi [5,6]. Asosiy endemik o'choqlar O'zbekiston, Turkmanistonda, shuningdek Qozog'istonning ayrim mintaqalarida joylashgan [7, 8, 9,10]. Ushbu hududlarda kasallikning namoyon bo'lish darajasi har xil, ularning har birida aholining kasallanish joylari, aholi punktlari va tabiiy o'choqlarning o'zaro bog'liqligi, aholining o'choq bilan aloqa darajasi va immunitet qatlami bilan bog'liq [11,12]. Endemik jixatdan Uzbekistonda bu kasallikning uchrash darajasi ancha yillardan beri pasaymagan [13,14].

Epidemiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, teri leishmaniozi ma'lum mavsumiylik bilan tavsiflanadi. Birinchi bemorlar may oyining oxirida paydo bo'ldi, keyin kasallik ko'paydi va sentyabr-oktyabr oylarida maksimal darajaga yetdi, so'ngra kasallikning bosqichma-bosqich pasayishi kuzatildi, dekabr va yanvar oylarida teri leishmaniozi bilan 1- 2 ta kasallanganlar ro'yxatga olindi, va bu bemorlar vrachga kech murojaat etgan bemorlar hisoblandi.

Qo'zg'atuvchilarning geografik hududlarga bo'liqligi tufayli Eski Zamon teri leishmaniozi va Yangi Zamon teri leishmaniozi farqlanadi.

Eski zamon leishmaniozi Osiyo, Afrika, Yaqin Sharq va O'rta er dengizida tarqalgan. Eski zamon teri leishmaniozining sababi L. major yoki L. tropica, kamroq L. infantum, L. aethiopica. O'rta yer dengizi va Kaspiy dengizlarida teri leishmanioziga L. infantum va L. chagasi sabab bo'ladi.



Shuni ta'kidlash kerakki, qo'zg'atuvchining tabiiy tashuvchisi turar joylarining tabiati va turi o'zgarib, chivinlarning joylashadigan populyatsiyalari paydo bo'ladi [15].

O'zbekiston hududida Leyshmanianing uch turi mavjud: L.major, L.turanica, L.gerbilli [16,17]. Leyshmaniozga qarshi choralarni ishlab chiqishda atrof-muhit omillarini ham hisobga olish kerak. Bu shuni ko'rsatadiki, kasallikning murakkablashuvida atrof-muhit omillari ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. [18,19,20].

Bundan tashqari, olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, kasallikning bitta endemik joyi boshqalarga qaraganda turli xil nazorat choralari talab qilishi mumkin.

Maqsad va vazifalar

Teri leyshmaniozining Buxoro viloyati bo'yicha yoshi, jinsi va hududlarga nisbatan statistik tahlillar yig'ish.


Material va uslublar

Tadqiqotning belgilangan maqsadlari va vazifalaridan kelib chiqib, biz zoonoz teri leyshmaniozi bilan kasallangan O'zbekiston Respublikasining Respublika ixtisoslashtirilgan Dermatovenerologiya va Kosmetologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi Buxoro hududiy filialida murojaat qilganlar orasida 110 nafar bemorni aniqlab, tahlillarni yig'dik.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi

1-jadvalda yashash joyiga qarab teri leyshmaniozi bilan kasallangan bemorlar ko'rsatilgan.

1-jadval



Izoh: 1 – Jondor, 2 - Peshku, 3 - Romitan, 4 - Vobkent, 5 - Olot, 6 - G'ijduvon, 7 – Buxoro shahar, 8- Buxoro tuman, 9 - Shofrikon, 10 -Qorako'l, 11 – Kogon, 12-Navoiy viloyati

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, bemorlarning eng ko'pi Buxoro viloyatlari aholisi bo'lib, ularning hududi yarim cho'l bilan ajralib turib, aholining kasbiy faoliyati tufayli bemorlar doimo teri leyshmaniozining eng epidemik markazlarida bo'lishadi.

Taqdim etilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, teri leyshmaniozi bilan kasallangan barcha bemorlar Buxoro viloyatining turli tumanlarida yashovchilar. Ya'ni 110 nafar



bemorlardan 24 ta (21,8%) Jondor, 16 ta (14,5%) Peshku, 4 ta (3,6%) Romitan, 5 ta (4,5%) Vobkent, 14 ta (12,7%) Olot, 1ta (0,9%) G'ijduvon, 2 ta (1,8%) Buxoro shahar, 6 ta (5,4%) Buxoro tuman, 20 ta (18,2%) Shofrikon, 9 ta (8,2%) Qorako'l, 7 ta (6,3%) Kogon, 2 ta (1,8%) Navoiy viloyati aholisidir. Statistika bu hududlar orasidan eng ko'p aniqlangan bemorlar Jondor tumani aholisidir.

Ushbu bemorlarni klinik turlariga qarab ajratdik va quyidagicha natijaga erishdik

- 1- Yaralangan leyshmanioma (asoratlanmagan) - 43 nafar bemor
- 2- Leyshmanioma limfangit va limfadenit holatli asoratlangan - 42 nafar bemor
- 3- Leyshmanioma do'mboqchali holatli asoratlangan -11 nafar bemor
- 4- Leyshmanioma ham limfangit va limfadenit ham do'mboqchali holatli asoratlangan -14 nafar bemor

Taqdim etilgan 2- jadval ma'lumotlardan ayollar va erkaklarning klinik ko'rinishlarida sezilarli farqlar mavjud emas edi, chunki o'rganilgan kasallik shakllari taxminan bir xil kechimda kechadi. Shunday qilib, 110 nafar bemorlarning 54 nafari (49 foiz) erkaklar, va 56 nafari (51 foiz) ayollar bo'lib hisoblandi. Shuning uchun ko'rib chiqiladigan kasallikni klinik shakllarini jinsidan qat'i nazar bir guruhga umumlashtirsa bo'ladi.

2. Jadval

Zoonoz teri leyshmaniozi bilan kasallangan bemorlarni jinsiga qarab taqsimlash

Klinik turlari	Bemorlar jinsi			
	erkak		ayol	
	soni	%	soni	%
Yaralangan leyshmanioma (asoratlanmagan)	20	18,2	23	20,9
Leyshmanioma limfangit va limfadenit holatli asoratlangan	24	21,8	18	16,4
Leyshmanioma do'mboqchali holatli asoratlangan	4	3,6	7	6,4
Leyshmanioma ham limfangit va limfadenit, ham do'mboqchali holatli asoratlangan	8	7,3	6	5,4
Jami	56	50,9	54	49,1

Yuqorigi jadvaldan ko'rinib turibiki Leyshmaniozning do'mboqchali holatli asoratlangan (11 nafar) va Leyshmaniozning ham limfangit va limfadenit, ham do'mboqchali holatli asoratlangan (14 nafar) klinik turlari statistik jihatdan soni past bo'lishiga qaramay bu bemorlar shifoxonaga kech murojaat qilgan bemorlar sanaldi va bir muncha murakkabroq davo muolajasi bilan davolashga to'g'ri keldi.

Biz bemorlarning yoshi va zoonoz teri leyshmaniozining klinik ko'rinishlari o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholashga erishdik. Ushbu tahlil natijalarini biz. 3-jadvalda joylashtirdik.

3. Jadval

Teri leyshmaniozi bilan kasallangan bemorlarni yoshiga qarab taqsimlash

Guruh	18 yoshgacha	18-30	31-40	41-50	50 yoshdan yuqori
-------	--------------	-------	-------	-------	-------------------



	aбс	%	aбс	%	aбс	%	aбс	%	aбс	%
1, n=43	9	8,2	12	10,9	9	8,2	1	0,9	12	10,9
2, n=42	13	11,8	9	8,2	7	6,4	5	4,5	8	7,3
3, n=11	3	2,7			4	3,6			4	3,6
4, n=14	2	1,8	2	1,8	6	5,4			4	3,6
Jami	27	24,5	23	20,9	26	23,6	6	5,5	28	25,5

3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, asosan teri leyshmaniozining turli xil klinik variantlari bo'lgan bemorlar turli yoshda bo'lishi ushbu muammoning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Xulosa

Shunday qilib biz yig'gan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, Buxoto viloyati Jondor tumanida teri leyshmaniozi bilan kasallanganlar soni yuqori darajada va yarali leyshmanioz (asoratlanmagan) turi vaqtida shifokorga murojaat qilganligi tufayli yuqori ko'rsatkishda turibti. Kasallik uchrashi jins tanlamasligi, har ikkala jinsda bir xil uchrashini aniqladik. Statistika teri leyshmaniozi 18 yoshgacha va 50 yoshdan yuqori bo'lgan bemorlarda son jihatdan yuqori ko'rsatkichni ko'rsatdi, chunki bu yoshdagilar doimiy qishloqda yashovchilar hisoblanadi.

References:

1. Axmedovich, M. F., Samadovna, S. G., & Obidovich, S. S. (2021, May). Observation of immunological changes during clinical cycles of skin leishmaniosis. In Euro-Asia Conferences (Vol. 5, No. 1, pp. 207-211).
2. Axmedovich, F. M., & Amonovich, D. Y. (2021). Clinical Criteria for the Manifestation of Atopic Dermatitis in Schoolchildren, Depending on Age. Central asian journal of medical and natural sciences, 2(5), 335-339.
3. Axmedovich, M. F., Ikromovich, L. I., & Hamza o'g'li, O. J. (2021). Statistics of the incidence of cutaneous leishmaniasis in the Bukhara region, depending on age, gender and region. Middle European Scientific Bulletin, 17, 373-377.
4. Zhang, W.-W. & Matlashewski, G. Screening Leishmania donovani Complex-Specific Genes Required for Visceral Disease. Methods Mol. Biol. 1201, 339-61 (2015).
5. Kaye, P. & Scott, P. Leishmaniasis: complexity at the host-pathogen interface. Nat. Rev. Microbiol. 9, 604-15 (2011).
6. Maxmudov, F. A., Raxmatov, O. B., Latipov, I. I., Rustamov, M. K., & Sharapova, G. S. (2021). Intravenous laser blood irradiation in the complex treatment of patients with cutaneous leishmaniasis. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(9).
7. Makhmudov, F. A., & Gulomova, S. K. (2021). Changes in skin leishmaniasis after local treatment. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(1), 1744-1749.
8. Maxmudov, F. A., & Latipov, I. I. (2019). The immunopathogenesis of atopic dermatitis and strategy of immunotherapy. Новый день в медицине, (4), 53-57.



9. Rakhmatov, O. B. (2021). Improving the principles of treatment in patients with zoonotic leishmaniasis with the immunomodulator gepon and methylene blue using the alt-vostok device. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(9).
10. Choi, C. M. & Lerner, E. A. Leishmaniasis as an emerging infection. J. Investig. Dermatol. Symp. Proc. 6, 175–82 (2001).
11. Джумагулов К. Б., Елисеев Л. Н. и др. /Зоонозный кожный лейшманиоз в Чимкентской области. // Здравоохранение Казахстана. - 1989. - №1. - С. 45-46.
12. Дергачева Т. И., Жерихина И. И. О внепоровой активности переносчиков возбудителей зоонозного кожного лейшманиоза // Мед. паразитологии паразитар. болезни. - 1993. - №5. - С. 37-43.
13. Махмудов, Ф. А., & Латипов, И. И. (2019). Атопический дерматит: иммунопатогенез и стратегия иммунотерапии. Новый день в медицине, (4), 195-200.
14. Махмудов, Ф. А., Латипов, И. И., Озодов, Ж. Х., & Юсупов, Д. А. (2020). Vitiligo extent tensity index (veti) score: a new definition, assessment and treatment evaluation criteria in vitiligo. Новый день в медицине, (1), 276-279.
15. Шаропова, Г. С. (2022). Изучить Эффективность Экстракта Алоэ При Местном Применения Зоонозного Лейшманиоза. Central asian journal of medical and natural sciences, 2(7), 216-220.